

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KADIROV TIMUR RAXMATILLOYEVICH

**KOREYS VA O‘ZBEK ADABIY ALOQALARI VA
TARJIMASHUNOSLIGINING TARAQQIYOT PRINSIPLARI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Kadirov Timur Raxmatilloevich

Koreys va o‘zbek adabiy aloqalari va tarjimashunosligining taraqqiyot
prinsiplari..... 3

Кадилов Тимур Рахматиллоевич

Принципы развития корейских и узбекских литературных связей и
переводоведения 25

Kadirov Timur Rakhmatilloevich

Development principles of Korean and Uzbek translation and literary relations and
translation studies..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KADIROV TIMUR RAXMATILLOYEVICH

**KOREYS VA O‘ZBEK ADABIY ALOQALARI VA
TARJIMASHUNOSLIGINING TARAQQIYOT PRINSIPLARI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2107 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmanov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abbasova Dilfuza Karimbek qizi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning "29" avgust 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-34; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63350-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "14" avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil "14" avgust dagi № 44-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A. Xolikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida globallashtirish hamda madaniyatlararo integratsiya jarayonlarining jadallashuvi turli xalqlar o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayon milliy adabiyotlarning o'zaro boyishiga, badiiy tarjimalar ko'lamining kengayishiga hamda xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, asarlarning badiiy-estetik qimmati, muallif uslubi va milliy o'ziga xosligini tarjimada imkon qadar to'liq saqlash, ularni kitobxonga adekvat etkazish, o'zbek va boshqa xalqlar adabiy aloqalarini yanada rivojlantirish hamda tarjima amaliyoti sifatini oshirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish, adabiy aloqalarni yanada mustahkamlash va badiiy tarjimalar samaradorligini oshirish mazkur mavzuning dolzarbligi hamda zaruratini belgilaydi.

Dunyoning etakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida badiiy tarjima, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlarida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, badiiy asarlarni asl tildan tarjima qilish tamoyillari, tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarni saqlash, lingvokulturologik birliklarning adekvat ifodalanishi hamda xalqlar adabiy aloqalarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish zamonaviy tarjimashunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda tarjima strategiyalari, badiiy matnning semantik va pragmatik xususiyatlarini boshqa tillarda ifodalash, shuningdek, milliy adabiyotlararo aloqalarning shakllanish va taraqqiyot tamoyillarini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan koreys adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o'rni, uning boshqa tillarga tarjima qilinishi va unda milliy koloritning aks ettirilishi muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Mamlakatimizda xorijiy adabiyot namunalarini o'zbek tiliga sifatli tarjima qilish va tarjima faoliyatining ilmiy asoslarini rivojlantirish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei yanada oshirish, uning xalqaro miqyosdagi obro'sini yuksaltirish, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud".¹ Bo borada koreys badiiy asarlarining o'zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan leksik-semantik, lingvostilistik, lingvokulturologik va lingvopragmatik muammolarni, xususan, asliyat matnidagi milliy-madaniy xususiyatlarning tarjimada ifodalanishi masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni.

ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari², shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalaishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy adabiyotlarning ikki yoqlama o'zaro aloqasi, tarjima va adabiy ta'sir masalasi jahon kontekstida bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Jahon adabiyotshunosligida bu masalalar alohida yo'nalish kasb etib, uning bosh prinsiplarini, taraqqiyot tamoyillarini va ta'sir qonuniyatlarini aniqlash mavzusida J.Vinay, J. Dalbarnet, K. Liu, X Zhang, P. Krings, Ye. Gentzler, A. Barselona kabi olimlar o'z tadqiqotlarini amalga oshirgan³. Qardosh xalqlar adabiyotshunosligida A.S. Babayan, V.M. Gadjiev, M.Sh. Kurmanov, L.K. Xuchua, Agaev Agil Israfil o'gli, V.M. Kaxniashvililarning ishlari ham ahamiyatga molik⁴. O'zbek adabiyotshunosligida Q.Musaev,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5073447> (29.10.2025.); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063> (30.10.2025.); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3765586> (02.11.2025.); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887> (02.11.2025.); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5239538> (02.11.2025.); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736> (03.11.2025.).

³ Vinay J. P., Darbelnet J. Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation, Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 358 p.; Liu K. Corpus-assisted translation teaching: Challenges and issues. Singapore: Springer, 2020. – 162 p.; Zhang X. Corpus-based studies of explicitation. The routledge handbook of corpus translation studies. London: Routledge. 2024. – P. 254–268.; Krings H. P. Was in den Köpfen von Übersetzern vorgeht. Tübingen: Narr. 1986. – 393 p.; Gentzler E. Contemporary translation theories. London: Routledge. 1993. – 224 p.; Barcelona A. Metaphor and metonymy at the crossroads: A cognitive perspective. Berlin: Mouton de Gruyter. 2000. – P. 295–320.

⁴ Babayan B.H. Текст и дискурс. Ярославль: ЯГПУ им. К.Д. Ушинского. 2002. – 160 с.; Гаджиев В.М. Теория и практика перевода. Баку: Элм, 2004. – 240 с.; Курманов М.Ш. Основы переводоведения. Алматы: Қазақ

D.Xoshimova, A.Sharipova, R.Shirnova, Z.Teshaboeva, U.Yo‘ldoshev, M. Xolbekovlarning ishlarida tarjima, xususan, badiiy tarjimaning turli aspektlari keng tadqiq qilingan.⁵ Ammo koreys-o‘zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va ilmiy asoslari mavzusi adabiyotshunoslikda alohida yaxlit va tizimli fundamental tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Bu davr qiyosiy adabiyotshunosligini yangicha ilmiy tafakkur va konsepsiyalar bilan bog‘liq holda tadqiq etish, koreys-o‘zbek adabiy aloqalarining yetakchi xususiyatlarini aniqlash asosiy masalalardan biriga aylandi. Dissertatsiyaning maqsad va vazifalarini belgilashda ana shu ilmiy tamoyildan kelib chiqildi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan tadqiqot ishlarning aksariyati badiiy tarjima muammolariga bag‘ishlangan. Islomov Husniddinning “O‘zbekiston va Koreya satirik adabiyotini (Shin Kyung Suk va O‘tkir Hoshimovning asarlari misolida) o‘rganish” mavzusidagi Koreyada tadqiq qilingan dissertatsiyasida⁶ tasviriy vositalar tarjimasining leksik, semantik, sintaktik-stilistik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan. Undan tashqari, zamonaviy koreys nasri va nazmining shakllanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, janr o‘zgarishlari haqida, mashhur rus koreysshunos olimlari A. Trotsevich, M. Nikitina, A. Konsevich, V. Ivanova, I. Soy, M. Soldatova⁷ va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlariga tayanildi. Shuningdek, falsafa fanlari doktori, dotsent Kim Viktoriya Nikiforovna va PhD Kim Byon Ining koreys adabiyotshunosligi haqidagi tadqiqotlari⁸ chuqur o‘rganildi. Tahlil qilib chiqilgan ishlardan farqli o‘laroq, bizning tadqiqot ishimizda metafora, metonimiya, mubolag‘a, leksik-stilistik vositalar va frazeologik birliklarning asl badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlari va ularning tarjimada berilish usullari, ushbu lisoniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari hamda ikki xil tarjima nusxalarini qiyoslash asosida tarjima qilish texnologiyasi tizimlashtirildi.

университеті, 2010. – 256 с.; Хучуа Л.К. Лингвистические основы перевода. Тбилиси: Издательство Тбилисского университета, 2005. – 210 с.; Агаев А.И. Проблемы перевода и межкультурной коммуникации. Баку: Азербайджанский государственный педагогический университет, 2015. – 180 с.; Кахниашвили В.М. Теория перевода (англо-грузинский аспект). Тбилиси: Мецниереба, 2007 – 220 с.

⁵Musaev Q. Zamonaviy badiiy tarjima muammolari. – Toshkent: Fan, 2017. – 156 b.; Xoshimova D. Tarjima nazariyasining yangi tendensiyalari. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 184 b.; Sharipova A. Badiiy tarjimada milliy mentalitet ifodasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2020. – №3. – B. 45–52; Shirnova R. XXI asr o‘zbek tarjimachiligi. – Toshkent: Universitet, 2018. – 172 b.; Teshaboeva Z. Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik masalasi // Filologiya masalalari. – 2021. – №2. – B. 63–70; Yo‘ldoshev U. Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjima jarayoni. – Toshkent: Fan, 2016. – 198 b.; Xolbekov M. Adabiy aloqalar va tarjima talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 210 b.

⁶Islomov H. O‘zbekiston va Koreya satirik adabiyoti (Shin Kyong Suk va O‘tkir Hoshimov asarlari misolida). Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021. – 158 b.

⁷Троцевич А. Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в.) Санкт-Петербург: Петербургское востоковедение, 2004. – 464 с.; Никитина М. И. Корейская поэзия в жанре сиджо (XVI–XIX вв.) (Автореферат диссертации) Ленинград, 1962. – 120 с.; Концевич Л. Р. Корейский язык и письменность Москва: Наука, 1978. – 304 с.; Ivanova O. Y. On new tendencies in Russian translation practice today in: European proceedings of social and behavioural sciences. 2020. – P. 492–499.; Цой И.В. Художественная проза Республики Корея в российской культуре В: Korean peninsula: History and modernity. Москва: ИККА РАН. 2020. – С. 309–321.; Солдатова М.В. Литературные связи России и Корейских государств В: Korean Peninsula: history and modernity. Москва: ИККА РАН. 2020. – С. 293–308.

⁸Kim V. N. Проблемы интерпретации корейской литературы в современном литературоведении. Вестник востоковедения, 2019. – №3(2), 45–58.; Kim B. I. Корейская литература в контексте национальной идентичности. Seoul–Moscow: Institute of Asian Studies Proceedings, 2018. – С. 112–130.

Tadqiqot dissertatsiyasi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq "Yangi O'zbekistonda til, adabiyot, tafakkur va jamiyatning o'zaro aloqalari, sun'iy intellekt va raqamli tadqiqotlar" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek-koreys adabiy aloqalarining shakllanishi va rivojlanish omillarini aniqlash, Shin Kyung Suk va O'tkir Hoshimov asarlari tarjimalarining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish hamda tarjima jarayonida leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash usullarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Seoul va Busan shaharlarida shakllangan turkiyshunoslik maktablari faoliyatini tarixiy hamda ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganish orqali koreys turkiyshunosligining shakllanish bosqichlarini aniqlash;

koreys–o'zbek adabiy aloqalarining yuzaga kelish omillari, taraqqiyot dinamikasini qiyosiy-adabiy tahlil asosida belgilash hamda ularning rivojida tarjima, adabiy ta'sir, tipologik mushtaraklik va madaniy muloqotning nazariy asoslarini jahon adabiyoti paradigmasi doirasida talqin qilish;

o'zbek va koreys adabiyoti namunalari misolida ijodiy ta'sirning tashqi (syujet, obraz, motiv) va ichki (g'oya, poetika, badiiy tafakkur) qatlamlarini ochib berish;

koreys tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarni zamonaviy tarjimashunoslik nazariyalari asosida tahlil qilish hamda taglama tarjima fenomenining adabiy aloqalar rivojidagi o'rnini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida koreys va o'zbek zamonaviy adabiyoti vakillari Shin Kyung Sukning "Onamni panohingda asra" va O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarlari va ularning tarjimalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini koreys-o'zbek zamonaviy adabiyoti namunalari tarjimalarining lingvopoetik va tarjima xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik (mushtaraklik), intuitiv va komparativistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turfan vohasi qo'lyozmalari, Afrosiyob devoriy suratlari hamda Geongju shahridagi so'g'diy savdogarlar haykali asosida koreys–o'zbek adabiy aloqalarining tarixiy genezisi adabiy-madaniy munosabatlarning rivojlanish xususiyatiga ko'ra ilk madaniy aloqalar, vositachilik davri va bevosita adabiy hamkorlik bosqichlariga ajratilib, mazkur bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda shakllanish va rivojlanish omillari asoslangan;

Koreyada turkologiyaning rivojlanish modeli koreys–o'zbek adabiy aloqalari kontekstida aniqlashtirilib, uning institutsional rivojlanishi hamda tarjima faoliyati va madaniy hamkorlikning o'zaro uyg'unlashuv mexanizmlari ochib berilgan.

Shin Kyung Sukning 엄마를 부탁해 ("Onamni o'z panohingda asra") hamda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarlarida ona obrazi, oilaviy qadriyatlar va milliy-ma'naviy tushunchalar ifodasidagi tipologik mushtarakliklar

hamda milliy-madaniy mentalitetning badiiy idrok etish, badiiy anglash va tasvirlash kabi badiiy ifodalanish xususiyatlari aniqlangan;

taglama (interlinear) tarjima asosida yaratilgan badiiy matnlarning koreys–o‘zbek adabiy aloqalaridagi vositachilik mexanizmlari qiyosiy-tipologik tahlil asosida aniqlanib, ularning zamonaviy badiiy tarjima amaliyotida milliy-madaniy mazmunni yetkazish va adabiy muloqotni ta’minlashdagi nazariy-metodologik hamda amaliy imkoniyatlari asoslangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

koreys va o‘zbek badiiy asarlari, ularning tarjima namunalari hamda taglama (interlinear) tarjima materiallaridan “Jahon adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Badiiy tarjima” fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini boyitishda foydalanilgan;

koreys badiiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda milliy-madaniy birliklar, realiyalar, lingvokulturologik xususiyatlar va tarjima strategiyalarini ifodalashga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

koreys badiiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida milliy-madaniy birliklar, lingvokulturologik xususiyatlar va tarjima strategiyalarini aks ettirishga oid ilmiy xulosalar tarjima amaliyotini takomillashtirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan nazariy-amaliy ma’lumotlarning ishonchli tarixiy manbalardan olinganligi, manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, chiqarilgan ilmiy xulosalarning qiyosiy - tipologik, tarixiy - qiyosiy, lingvopoetik tahlil usullari orqali asoslangani, tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiy aloqalarning genezisi va tadrijini qardosh hamda xorijiy manbalarga tayanib o‘rganishda, tarjima, ta’sir, tipologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar yaratishda, ensiklopedik xarakterdagi akademik nashrlarni tuzishda, koreys va o‘zbek adabiyoti qomusini yaratishda asqotishi, ularni to‘ldirib, ilmiy yutuqlarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning ilmiy-amaliy va nazariy xulosalaridan oliy ta’lim muassasalarining xorijiy filologiya, tarjimashunoslik, xalqaro jurnalistika fakultetlarida jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti, qiyosiy tipologiya fanlarini o‘qitishda, ma’ruza matnlarini tuzishda, maxsus kurs va seminarlar o‘tkazishda, darsliklar, o‘quv - metodik qo‘llanmalar yaratishda, ko‘p tilli lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin. Badiiy matnlarning qiyosiy lingvopoetik tahlili jarayonida chiqarilgan xulosalar ilmiy xodimlarning izlanishlarida, tarjima tarixini yoritishda, tarjimashunoslikning amaliy - nazariy tomonlarini boyitishda, koreys-o‘zbek adabiyotlarining jahon adabiyotshunosligi rivojida o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq jihatlarini targ‘ib etishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Koreys va o‘zbek adabiy aloqalari, badiiy tarjima jarayonlari hamda tarjimashunoslik taraqqiyot tamoyillarini o‘rganishdan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Turfan vohasi qo‘lyozmalari, Afrosiyob devoriy suratlari hamda Geongju shahridagi so‘g‘diy savdogarlar haykali asosida koreys–o‘zbek adabiy aloqalarining tarixiy genezisi adabiy-madaniy munosabatlarning rivojlanish xususiyatiga ko‘ra ilk madaniy aloqalar, vositachilik davri va bevosita adabiy hamkorlik bosqichlariga ajratilib, mazkur bosqichlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda shakllanish va rivojlanish omillari asoslanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-son xatiga muvofiq 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 5-yanvardagi 5/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida adabiy aloqalar va tarjimashunoslik taraqqiyot bosqichlarida tarjima, adabiy ta’sir, tipologik mushtaraklik hamda moddiy-madaniy muloqot omillarining o‘rni yoritilib, ushbu yo‘nalishga oid o‘quv-uslubiy materiallar mazmunini takomillashtirishga erishilgan.

Koreyada turkologiyaning rivojlanish modeli koreys-o‘zbek adabiy aloqalari kontekstida aniqlashtirilib, uning institutsional rivojlanishi hamda tarjima faoliyati va madaniy hamkorlikning o‘zaro uyg‘unlashuv mexanizmlari ochib berilganiga oid ilmiy xulosalardan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida bajarilgan I-204-4-5 raqamli “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida virtual resurslar yaratish va ularni o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2023-yil 18-sentyabrdagi 524/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, koreys–o‘zbek adabiy aloqalari va tarjimashunosligiga oid o‘quv resurslarini yaratishda Koreyada turkologiyaning institutsional rivojlanish tajribasi hamda metodologik yondashuvlaridan foydalanish orqali darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy-uslubiy materiallarning ilmiy-metodik saviyasi oshirilgan;

Shin Kyung Sukning *엄마를 부탁해* (“Onamni o‘z panohingda asra”) hamda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarlarida ona obrazi, oilaviy qadriyatlar va milliy-ma’naviy tushunchalar ifodasidagi tipologik mushtarakliklar hamda milliy-madaniy mentalitetning badiiy idrok etish, badiiy anglash va tasvirlash kabi badiiy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash natijasida olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-noyabr kuni efirga uzatilgan “Ziyokor” hamda “Tillar – millat ko‘zgusi” nomli radio eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati radiosining 2023-yil 11-noyabrdagi 01-07/370-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarda koreys va o‘zbek adabiyotlarida ona obrazi, oilaviy qadriyatlar hamda milliy mentalitetning badiiy ifodasi yuzasidan qiyosiy tasavvurlar

shakllantirilib, radio eshittirishlarning ilmiy-ma'rifiy mazmuni va konseptual samaradorligi oshirilgan;

taglama (interlinear) tarjima asosida yaratilgan badiiy matnlarning koreys–o'zbek adabiy aloqalaridagi vositachilik mexanizmlari qiyosiy-tipologik tahlil asosida aniqlanib, ularning zamonaviy badiiy tarjima amaliyotida milliy-madaniy mazmunni etkazish va adabiy muloqotni ta'minlashdagi nazariy-metodologik hamda amaliy imkoniyatlari dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universitetida 2024-yil 1-may sanasida imzolangan ALM-2020403110246-son shartnomaga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi turizm obektlarining katalogini raqamlashtirishning turizm rivojlanishiga ta'sirini tadqiq etish" nomli amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2026-yil 6-yanvardagi 02-02/19-son ma'lumotnomasi). Natijada, turizm obektlariga oid axborot materiallarini xorijiy auditoriyaga etkazishda tarjima jarayonida milliy-madaniy mazmunni adekvat ifodalash, madaniy realiyalarni saqlash hamda turli madaniy kontekstlarga moslashtirishning tarjimashunoslikka oid metodik yondashuvlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan. Ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar, xorijiy tadqiqotlar sharhi, dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Koreya turkiyshunosligining ilmiy-amaliy asoslari**» nomli birinchi bobida Koreya turkiyshunoslik taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy asoslari hamda Koreya turkiyshunoslik tadqiqot markazlari tarixi masalalari o'rganilgan.

"Buyuk Ipak" yo'lining muhim chorrahasida joylashgan O'zbekiston va unga tutash hududlar qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi sivilizatsion makon sifatida

tarixda alohida o‘rin egallagan. Ushbu hududlar orqali Xitoy, Koreya yarim oroli va Markaziy Osiyo o‘rtasida savdo, diplomatik, madaniy hamda ilmiy aloqalar shakllangan. Xitoy manbalarida, shuningdek, sharqshunoslik, turkologiya va islomshunoslikka oid tadqiqotlarda bu munosabatlar haqida boy tarixiy-ilmiy ma’lumotlar saqlanib qolgan. Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, koreys xalqi Turkiston hududlariga, xususan, So‘g‘dlar, Temuriylar va Boburiylar davlati bilan bog‘liq mintaqalardagi barcha davrlarga alohida qiziqish bildirgan. O‘rta Osiyo hududlari orqali koreys yarim orolida muhim siyosiy ahamiyat kasb etgan Koguryo davlatining elchilari uzoq safarlarda bo‘lgani manbalarda qayd etilgan. Shunga qaramay, Koreyada turkiyshunoslik fanining shakllanishi va rivoji uzoq vaqt davomida tizimli tarzda ilmiy tadqiq etilmagan.

Koreys yarim orolining uzoq asrlar davomida Xitoy siyosiy va madaniy ta’siri ostida bo‘lgani koreys ilmiy tafakkurida turkiy dunyoni asosan Xitoy manbalari orqali idrok etishga sabab bo‘lgan. Shu bois, koreys turkiyshunosligining dastlabki bosqichlarini bevosita Xitoy yozma manbalari bilan bog‘liq holda o‘rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Samarqanddagi Afrosiyob saroyi devorlarida tasvirlangan VII asrga oid devoriy suratlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu devoriy tasvirlarda so‘g‘d yozuvi va Markaziy Osiyo, Sharq mamlakatlari elchilarining tasvirlari aks etgan bo‘lib, ular turli xalqlar o‘rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarning muhim dalili hisoblanadi. Afrosiyob devoriy suratlaridagi ayrim obrazlarning Koreya yarim oroli davlatlari – Shilla yoki Goguryoga mansubligi haqidagi ilmiy bahslar hozirgi kungacha dolzarbligini yo‘qotmagan. Turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda V.V. Radlov, L.N. Gumilyov, A.N. Kononov, Z. Ziyotov⁹ kabi olimlarning fundamental asarlari koreys turkiyshunosligi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, V. Radlov “Turk qabilalari xalq adabiyoti namunalarida” asarida “turk” atamasining etimologiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilgan bo‘lsa, L. Gumilyovning “Qadimgi turklar” asari turk hoqonliklari tarixini Xitoy, Eron va Yevropa tarixiy jarayonlari bilan bog‘liq holda yoritgani bilan ahamiyatlidir. Z. Ziyotovning “Turon qavmlari” asari esa turkiy xalqlar haqida qisqa, ammo ensiklopedik xarakterdagi muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

Koreys turkiyshunosligining shakllanishida Xitoy omili alohida ahamiyat kasb etadi. Min sulolasi davrida, 1407-yilda tashkil etilgan “Sy-i-guan” (Siyiguan) ilmiy-ta’lim markazi Osiyodagi yirik til va tarjima markazlaridan biri bo‘lgan. Ushbu markazda turkiy va mo‘g‘ul tillarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilib, xitoy–uyg‘ur qiyosiy lug‘atlari tuzilgan. “Koktan” bo‘limida yaratilgan lug‘atlar va matnlar turkiy tillarning muhim yozma manbalaridan biri sifatida baholanadi. Mazkur asarlar keyinchalik koreys ilmiy muhitiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatgan. Tarixiy va arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, turkiy xalqlar ham,

⁹ Радлов В. В. Образцы народной литературы тюркских племён. Т. I. Санкт-Петербург: Императорская академия наук. 1893. – 350 с.; Гумилев Л.М. Древние Тюрки. – Москва: Наука, 1967. – 504 с.; Кононов А.Н. Корейское тюрковедение и международные исследования тюркских языков. – Москва, 2005. – 312 с.; Ziyotov Z. Turon qavmlari (kichik ensiklopedik lug‘at). Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012. – 456 b.

koreyslar ham Oltoy–Manchuriya hududlaridan kelib chiqqan qadimgi xalqlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ularning madaniy va ijtimoiy tuzilmalarida umumiyliklarni yuzaga keltirgan. Arxeologik topilmalar ham turkiy va koreys xalqlari o‘rtasidagi qadimiy aloqalarni tasdiqlaydi. Kul-Tegin yodgorliklarida Goguryodan kelgan elchilar haqida ma’lumotlarning uchrashi, Goguryo qabrlari va devoriy suratlaridagi o‘xshash tasvirlar bu aloqalarning miloddan avvalgi va ilk o‘rta asrlarga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy koreys turkiyshunosligining institutsional rivoji 1973-yilda Hankuk Chet tillari universitetida Turkiyshunoslik kafedrasining tashkil etilishi bilan boshlandi. Bu Osiyo mintaqasida kam uchraydigan ilmiy tashabbuslardan biri bo‘lib, Koreyada turkiy tillar va madaniyatni tizimli o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Keyinchalik Pusan Chet tillari universiteti, Hankuk universitetining Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrası, Kangnam universitetining Qozog‘istonshunoslik yo‘nalishi kabi bo‘limlar tashkil etildi. E’tiborga molik jihati shundaki, koreys turkiyshunos olimlarining aksariyati ilmiy darajalarni bevosita Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlarida olgan. Bu holat ularning til, madaniyat va jamiyatni bevosita muhitda o‘rganishiga imkon bergan va koreys turkiyshunosligining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qilgan. 1990-yillardan so‘ng Koreya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. KOICA orqali amalga oshirilgan loyihalar, yuqori darajadagi davlat tashriflari va akademik almashinuvlar koreys turkiyshunosligining ijtimoiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Xulosa qilib aytganda, koreyada turkiyshunoslik qadimiy tarixiy aloqalar, Xitoy vositachiligi, arxeologik va yozma manbalar hamda zamonaviy siyosiy-iqtisodiy ehtiyojlar asosida shakllangan. Ushbu yo‘nalish Koreya va turkiy davlatlar o‘rtasida ilmiy, madaniy va ijtimoiy ko‘prik vazifasini bajarib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Koreyada turkiyshunoslik va turkiy o‘lkashunoslikka oid ilmiy-tadqiqot markazlari, kafedralar hamda institutlarning shakllanish tarixi, ularning ilmiy yo‘nalishlari va hozirgi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Koreyada turkiy tillar va madaniyatlarni o‘rganishga oid dasturlar, asosan, XX asr oxiri – 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab shakllana boshladi. Bu jarayonda Hankuk Chet Tillar Universiteti (HUFS) yetakchi o‘rin egalladi. Ayniqsa, HUFS huzurida Turkiyshunoslik bo‘limining tashkil etilishi Koreyada turkiyshunoslik fanining institutsional asoslarini yaratdi. 2008-yilda ushbu bo‘lim tarkibiga ozarbayjon tili va madaniyati kiritilishi natijasida Koreyada ilk bor Turkiya–Ozarbayjonshunoslik bo‘limi tashkil etildi. Bu holat Koreya akademiyasida Kavkaz mintaqasiga bo‘lgan qiziqishning ortganidan dalolat beradi. Pusan Chet Tillar Universitetida (PUFS) 1995-yilda Turkiya–Markaziy Osiyo bo‘limi, HUFSda esa 2004- yilda Markaziy Osiyo tadqiqotlari bo‘limi tashkil etildi. Ushbu bo‘limlarda faoliyat yuritgan professor-o‘qituvchilarning aksariyati HUFS bitiruvchilari bo‘lib, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkiyada doktorlik

darajasini olgan mutaxassislardir. Bu holat HUFSSning Koreyada turkiyshunoslik maktabi sifatidagi muhim rolini yaqqol ko'rsatadi (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval.

Koreyadagi turkiyshunoslikka oid kafedralar

Tashkil etilgan yil	Kafedra nomi	Universitet nomi	Tadqiqot doirasi	Talabalar soni	Bitiruvchilar soni
1973 → 2008	Dept. Turkish Studies →Dept. Turkish Azerbaijani Studies (<i>Turkshunoslik kafedrası</i> → <i>Turkiya ozarbayjonshunoslik kafedrası</i>)	Hankuk University of Foreign Studies (<i>Hankuk Chet tillari universiteti</i>)	Turkey Azerbaijan (<i>Turkiya Ozarbayjon</i>)	30	850
2004	Dept. Central Asian Studies (<i>Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrası</i>)	Hankuk University of Foreign Studies (<i>Hankuk Chet tillari universiteti</i>)	Kazakhstan Uzbekistan (<i>Qozoqiston, O'zbekiston</i>)	30	55
1995 → 2015	Dept. Turkey-Central Asia →Dept. RussiaTurkey-Central Asia (<i>Turkiya-Markaziy Osiyo bo'limi</i> → <i>Rossiya bo'limiTurkiya-Markaziy Osiyo</i>)	Pusan University of Foreign Studies (<i>Pusan Chet Tillari Universiteti</i>)	Turkey Kazakhstan Uzbekistan (<i>Turkiya Qozog'iston O'zbekiston</i>)	40	291
2006	Dept. Kazakhstan Studies (<i>Qozog'istonshunoslik kafedrası</i>)	Kangnam University (<i>Kangnam universiteti</i>)	Kazakhstan (<i>Qozog'iston</i>)	10	Appx.3 Closed in 2015 (2015 yopilgan)

So'nggi yillarda Koreyada demografik o'zgarishlar, talaba sonining kamayishi va poytaxt markazidagi universitetlarga bo'lgan yuqori talab sababli ayrim mintaqaviy turkiyshunoslik dasturlari yopildi yoki boshqa yo'nalishlar bilan birlashtirildi. Jumladan, PUFSSdagi Turkiya–Markaziy Osiyo bo'limi russhunoslik bilan birlashtirildi, Gangnam universitetidagi Qozog'istonshunoslik kafedrası esa butunlay yopildi. Bu holat Koreyada turkiyshunoslik uchun asosiy chaqiriqlardan biri bo'lib, barqaror kadrlar tayyorlash va ilmiy merosni davom ettirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. 2007-yilda HUFSS huzurida tashkil etilgan Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari instituti Koreyada turkiy nuqtai nazarga asoslangan ilmiy izlanishlar olib boruvchi ilk markazlardan biri hisoblanadi. Institutning asosiy ustunligi shundaki, tadqiqotlar rus tiliga tayanmagan holda, mahalliy turkiy tillar – o'zbek, qozoq, ozarbayjon tillari asosida olib boriladi. Institut tomonidan yiliga ikki marta nashr etiladigan “The Korean Journal of Central Asia and Caucasus” jurnali ko'p tilliligi bilan ajralib turadi. Seul Milliy Universiteti qoshidagi Markaziy Yevroosiyo tadqiqotlari markazi ham 2007-yilda tashkil etilgan bo'lib, asosan Sharqiy Turkiston va Mo'g'uliston tarixiga ixtisoslashgan. Ushbu markaz tomonidan nashr etiladigan “Journal of Central Eurasian Studies” tarixiy yo'nalishdagi maqolalari bilan mashhur (1.2-jadvalga qarang).

1.2-jadval.

Koreyadagi turkiy o'lkashunoslik bo'yicha yirik tadqiqot institutlari

Establishment Year (Tashkil etilgan yili)	Establishing Institution (Tashkil etilgan Instituti)	Name of Institution (Instituti nomi)	Research Field (Tadqiqot sohasi)	Published Journal (Chop etilgan jurnallar)
2007	Hankuk University of Foreign Studies (Hankuk Chet el tadqiqotlari universiteti)	Institute of Central Asia & Caucasus Studies (Markaziy Osiyo va Kavkaz tadqiqotlari instituti)	Turkic States in Eurasia (Central Asia, Caucasus, Turkey etc.) – Titular base research (Yevroosiyo'dagi turkiy davlatlar (Markaziy Osiyo, Kavkaz, Turkiya va boshqalar) – Sarlavha asosidagi tadqiqotlar)	The Korean Journal of Central Asian and Caucasian Studies (Kareya Markaziy Osiyo va Kavkazshunoslik jurnali)
2007	Seoul National University (Seul milliy Universiteti)	Center for Central Eurasian Studies (Markaziy Yevrosiyo tadqiqotlari markazi)	Mongolia, Eastern Turkestan, Central Asia, Turkey, Persia, - History base research (Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Turkiya, Fors, - Tarixiy tadqiqotlar bazasi)	Journal of Central Eurasian Studies (Markaziy Yevrosiyo tadqiqotlari jurnali)
1997	Hanyang University (Hanyang Universiteti)	Asia-Pacific Research Center Osiyo-Tinch (Okeaniya tadqiqotlari markazi)	Eurasia, CIS, Russia, Central Asia, East Asia etc. - Russia based research (Yevrosiyo, MDH, Rossiya, Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo va boshqalar - Rossiyada joylashgan tadqiqotlar)	Journal of Eurasian Studies (Yevrosiyo tadqiqotlari jurnali)
2005	Kookmin University (Kukmin Universiteti)	Institute of Eurasian Studies (Yevrosiyo tadqiqotlari instituti)	Russia, Central Asia – Russia focused research (Rossiya, Markaziy Osiyo – Rossiyaga yo'naltirilgan tadqiqotlar)	-

Shuningdek, Hanyang va Kukmin universitetlaridagi Yevroosiyo tadqiqot institutlari asosan Rossiya va MDH makoniga yo'naltirilgan bo'lib, siyosiy-iqtisodiy masalalarni o'rganishga urg'u beradi. Koreyada turkiy va Markaziy Osiyo mavzusida chop etilgan 673 ta ilmiy maqola¹⁰ tahlili shuni ko'rsatadiki, siyosat, iqtisod va madaniyat yetakchi o'rinlarni egallaydi. Biroq, nashr etilgan kitoblar orasida tarix, madaniyat va tilga oid asarlar ustunlik qiladi. Bu esa akademik doira va keng jamoatchilik qiziqishlari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Koreyalik talabalar turkiy tillarni o'rganishda ko'proq tashqi motivatsiyaga – bandlik, biznes, tarjima va xalqaro faoliyat imkoniyatlariga tayanadi. Shu bilan birga, madaniy qiziqish va shaxsiy tajriba ham muhim rol o'ynaydi. Natijada o'quv dasturlari filologik yo'nalishdan madaniyatshunoslik va hududshunoslikka qarab kengaymoqda. HUFs tajribasi asosida zamonaviy turkiyshunoslik dasturi til, tarix, siyosat, iqtisod va madaniyatni integratsiyalashgan holda o'qitishga yo'naltirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Koreyada turkiyshunoslik XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda shakllangan va hozirgi

¹⁰ Lee K. Y., Kim S. H. Central Asia and turkic studies in Korea: Research trends and bibliometric analysis. Journal of eurasian studies, 2018. – №9(2). – P. 145–162.

kunda ko'p tarmoqli ilmiy yo'nalishga aylangan. Demografik va institutsional muammolarga qaramay, turkiy tillar va madaniyatlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Koreya va turkiy dunyo o'rtasidagi tarixiy yaqinlik, madaniy mushtaraklik va zamonaviy hamkorlik istiqbollari turkiyshunoslik tadqiqotlarini yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Dissertatsiyaning «**Koreys-o'zbek adabiy aloqalarining taraqqiyot tarixi**» deb nomlangan ikkinchi bobida koreys-o'zbek adabiy aloqalarining shakllanishi, rivojlanish tamoyillari, yangi bosqichiga doir taxlililiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Adabiyot insonlarni tarbiyalaydigan, ruhiyatini oziqlantiradigan, ta'bir joiz bo'lsa ko'zgu hamda millatning aslini ko'rsatib beruvchi beqiyos kuch hisoblanadi.

O'zbekistonda koreys adabiyotini o'rganish mustaqillikdan keyingi davrda yangi bosqichga ko'tarildi. Koreys adabiyoti tarixi, mumtoz va zamonaviy adabiyotiga bag'ishlangan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratildi. U. Saydazimova va D. Ismatullayevalar tomonidan tuzilgan "Koreys adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida" ¹¹ darsligida koreys adabiyotining shakllanishi, rivojlanishi hamda unga Xitoy, Yaponiya, Yevropa va rus adabiyotlarining ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu asarda XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning koreys adabiyotiga ta'siri ham tahlil qilinadi. "Koreys adabiyoti tarixi" asarida koreys mumtoz adabiyotining ilk yodgorliklaridan XIX asrgacha bo'lgan nasr va nazm namunalari tizimli ravishda bayon etilgan. Koreys adabiyoti tarixining asosiy bosqichlari davrlashtirilib, yetakchi adiblar ijodi tahlil qilingan.

Badiiy tarjima koreys-o'zbek adabiy aloqalarining muhim yo'nalishlaridan biridir. "Klassik koreys she'riyati antologiyasi" va "Zamonaviy koreys she'riyati antologiyasi" ¹² asarlarida koreys she'riyatining turli davrlariga mansub namunalar o'zbek tiliga tarjima qilinib, ilmiy izohlar bilan taqdim etilgan. Ushbu antologiyalarda buddaviylik va konfutsiychilik g'oyalari, tabiat va inson munosabatlari, ishq-muhabbat va falsafiy tafakkur yetakchi mavzular sifatida namoyon bo'ladi. "Zamonaviy koreys nasri antologiyasi" da ¹³ XIX asr oxiri – XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr koreys nasrining eng sara namunalarini o'z ichiga olgan. Tarjimalar koreys adabiyotining janr va uslubiy xususiyatlarini o'zbek kitobxoniga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi. XX asr davomida koreys adabiyoti asosan rus tili vositachiligida o'zbek tiliga tarjima qilingan. Mustaqillikdan keyin esa koreys adabiyotini bevosita asliyatdan tarjima qilish an'anasi shakllandi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida tayyorlangan malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilayotgan tarjimalar ¹⁴ badiiy sifat va ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi. Badiiy tarjima jarayonida tarjimonning ikki xalq adabiyoti, tarixi va madaniyatini chuqur

¹¹ Saydazimova U., Ismatullayeva D. Koreys adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida: Darslik. - Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021. – 148 b.

¹² Saydazimova U. and others. Anthology of classical korean poetry. Tashkent: Tashkent state institute of oriental studies. 2010. – 312 p.

¹³ Saydazimova U. Anthology of modern Korean poetry. Tashkent: Tashkent state institute of oriental studies, 2012. – 284 p.

¹⁴ Saydazimova U. T. Korean literature in the context of world literature. Tashkent: TSUOS Press. 2021. – P. 112–118.

bilishi muhim hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda koreys tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinayotgan asarlar adabiy aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Koreys diasporasi O'zbekiston jamiyatining ajralmas qismi bo'lib, adabiy-madaniy aloqalarda muhim o'rin tutadi. Boris Pak, Marta Kim kabi ijodkorlar o'zbek adabiy muhitida faol ishtirok etib, millatlararo adabiy muloqot rivojiga hissa qo'shmoqda. Koreys diasporasining madaniyat, ta'lim va san'at sohalaridagi faolligi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va madaniy integratsiyaning amaliy ifodasidir. O'zbekistonda koreys tili va adabiyotini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar izchil olib borilmoqda¹⁵. Koreys va o'zbek tillarining qiyosiy tadqiqi, koreys adabiyotining ma'naviy-estetik xususiyatlari, koreys nasri va she'riyatining tipologik jihatlari bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilingan. Xususan, koreys va o'zbek epik asarlarini qiyosiy o'rganish, "Alpomish" va "Jumong" dostonlari misolida qahramonlik konsepsiyasini tahlil qilish¹⁶ ikki xalq epik tafakkuridagi umumiy va milliy jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

So'nggi yillarda o'zbek va koreys yozuvchi hamda shoirlari o'rtasida ijodiy uchrashuvlar, xalqaro konferensiyalar va adabiyot kechalari tashkil etilmoqda. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Koreya Respublikasidagi adabiy tashkilotlar hamkorligida chop etilgan to'plamlar¹⁷ adabiy aloqalarning amaliy natijasidir.

Badiiy tarjima adabiyotlarning o'zaro ta'siri va bir-birini boyitishi deb ataladigan muhim jarayonlarning jonli va amaliy zaminidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin koreys adabiyotini bevosita aslyatdan ona tilimizga o'girish an'anasi paydo bo'ldi. Keyingi yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalar tomonidan bir qator o'zbek folklori namunalari koreys tiliga tarjima qilindi. Jumladan, o'zbek xalq ertaklaridan, xususan "Zumrad va Qimmat", "Oltin kuz", "Ur, to'qmoq", "Egri va To'g'ri", "Susambil", "Malikai Husnobod", "Uchar gilam" kabilar Yayra Mamatqulova tomonidan koreys tiliga o'girildi¹⁸. Otabek Yo'ldoshev, Zilola Abdug'afurova, Bobur Mirazizovlar ham zamonaviy koreys nasrini bevosita o'zbek tiliga o'girayotgan tarjimonlardir. Masalan, Bobur Mirazizov Li Xo Chul yozgan¹⁹ "Shimolliklar va janubliklar" romanini bevosita koreys tilidan tarjima qilgan.

1997-2023-yillar mobaynida "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi" jurnallarida, "Kitob dunyosi" gazetasida Kim So Vol, Li Son'son, Li Mun Yol, Kim Xvan Uk, Li Chon Gu, Xvan Mun Xvon, Yun Son Do, Kim Kvan Kuin²⁰ singari mumtoz va

¹⁵ <https://library-koresaram.com/shop/folder/kim-marta-borisovna-poetessa>.

¹⁶ Oh E. K. A comparative study on the heroic myth elements of Alpamish and Jumong myth // Journal of Middle Eastern Affairs, Myongji University Institute of Middle Eastern Studies, 2011. – №10(2), – P.105–125.

¹⁷ <https://kknews.uz/oz/211542.html>.

¹⁸ Маматкулова Я. Ўзбек халқ эртакларининг корейс тилига таржимаси ва лингвомаданий хусусиятлари. Тошкент: ТДШУ нашриёти, 2019. – 184 б.

¹⁹ O'zbekiston-Koreya yozuvchilar konferensiyasi/ 2024 한국-우즈베키스탄 작가대회, 20-28.

²⁰ 2024-yil O'zbekiston-Koreya yozuvchilar konferensiyasi/ 2024 한국-우즈베키스탄 작가대회, 10-15.; Jahon adabiyoti.. Adabiy-badiiy va ijtimoiy-publitsistik jurnal. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2023. – 206 b.; Sharq yulduzi. Adabiy-badiiy jurnal. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 1997. – 180 b.; Kitob dunyosi. Ma'naviy-ma'rifiy adabiy gazeta. Toshkent. 2023.

zamonaviy koreys shoirlarining turkum she'rlari e'lon qilingan. Ushbu turkumlar orqali o'zbek kitobxonlari koreys she'riyatining eng qadimgi namunalaridan tortib, XX asr so'ngigacha bo'lgan davridan xabardor bo'ladilar. Mazkur tarjimalar koreys she'riyatining taraqqiyot jarayonlari, sifat va saviyasi, badiiy xususiyatlari, koreys shoirlarining ijodiy izlanishlari to'g'risida muayyan tasavvur beradi.

XX asr koreys she'riyatidan o'zbek adabiyotining yirik vakillari Mirtemir, Shukrullo, Jumaniyoz Jabborov, Ramz Bobojon, Mashrab Boboevlar tarjimalar qilishgan²¹. Mirmuhsin XX asr koreys shoiri Te Gi Chen qalamiga mansub "Pektusan" poemasini o'zbek tiliga o'g'irgan²². Bu poema Koreyadagi mashhur vulqon nomi bilan atalgan. Shoir unda jamiyatda ro'y bergan ulkan ijtimoiy voqealarni ushbu vulqonning otilishi bilan bog'laydi.

XX asr koreys yozuvchisi Li Gi Yen qalamiga mansub "Zamin va zamon" romani o'zbek tilida bir necha marta chop qilingan²³. Bu romanda Koreyaning ikkiga bo'linib ketishi bilan bog'liq voqealar, koreys dehqonlari hayoti tasvirlanadi.

XX asrning 80-yillarida koreys mumtoz adabiyoti va koreys folkloridan tarjimalar qilindi. Masalan, Pirimqul Qodirov koreys xalq ertaklarini, Ozod Obid koreys xalq latifalarini o'zbek tiliga o'girdi²⁴.

Koreya mumtoz she'riyati vakillari Son Kan, Yun Son Do, An Mun Yon va boshqa shu kabi o'nga yaqin shoirlarning turkum she'rlari Mirpo'lat Mirzo, Fayzi Shohismoil, Shermurod Subhon, Davron Jabbor o'g'li tarjimalarida chop qilingan²⁵.

Hozir esa o'zbek ijodkorlari koreys adabiyotini asliyatdan, ya'ni koreys tilidan tarjima qilmoqdalar. O'zbekistonda chop qilinayotgan "Jahon adabiyoti" jurnali koreys adabiyoti namunalarini muntazam chop etib keladi.

2015-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor-o'qituvchilari bilan hammualliflikda²⁶ «Koreys tilini birgalikda o'rganamiz» media darsligi yaratilgan bo'lsa, shu yilning o'zida koreys kitobxonlarini o'zbek adabiyotining nodir asarlari, buyuk shoir va yozuvchilari bilan tanishtirish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Jumladan, shoira Zulfiyaning²⁷ 100 yilligiga bag'ishlab "Zulfiya she'riyati" koreys tilida chop etildi. Abdulla Qahhorning 10dan ortiq²⁸ hikoyalari koreys kitobxonlari e'tiboriga yetkazildi. Bugungi kunda Muhammad Yusufning vatan haqidagi she'rlari nashr qilinish arafasida.²⁹ 2013-yili kafedra professor-o'qituvchilari hamda «This work was supported by the Academy of Korean Studies (Korean Studies Promotion Service)

²¹ Ли Х. Ч. Северяне и южане (Б. Миразизов, пер.). Ташкент: Янги аср авлоди, 2021. – 224 б.

²² Те Ги Чен. Пектусан. Поэма. [Русчадан Мирмуҳсин таржимаси. Рассом: Г. Соколов]. Тошкент, Ўздавнашр, 1954. – 36 б.

²³ Jahon adabiyoti. Li Gi Yen. Zamin va zamon (tarjima). Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2023. – B. 45–49.

²⁴ Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 248 b.

²⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/hozirgi-zamon-koreya-she'riyatidan.html>.

²⁶ O'sha manba

²⁷ O'sha manba

²⁸ O'sha manba

²⁹ Koreyashunoslik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari. 2008, 2011, 2019, 2020, 2021-yillar.

Grant funded by the Korean Government (Ministry of Education)» homiyligida “Klassik koreys she’riyati antologiyasi”, “Klassik koreys nasri antologiyasi”, 2014-yili esa “Zamonaviy koreys nasri antologiyasi”, “Zamonaviy koreys she’riyati antologiyasi”³⁰ kabi kitoblar o‘zbek kitobxoni javonlarini to‘ldirdi.

Xulosa qilib aytganda, koreys–o‘zbek adabiy aloqalari bugungi kunda barqaror va tizimli rivojlanayotgan jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Badiiy tarjima, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim va ijodiy muloqot ushbu aloqalarning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Ikki xalqning Sharq madaniyatiga mansubligi, estetik qarashlaridagi mushtaraklik va tarixiy yaqinlik adabiy aloqalarning mustahkam poydevorini yaratmoqda. Tadqiqotning natijalari koreys–o‘zbek adabiy aloqalarining yangi bosqichini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi hamda kelgusidagi adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun nazariy va amaliy asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning «**Badiiy tarjima va ijodiy ta’sir adabiy aloqaning asosiy omili sifatida**» nomli uchinchi bobida Shin Gyong Suk va O‘tkir Hoshimovning asarlari tarjimasi, adabiy ta’sirdagi funksional mohiyati, lingvopoetik tahlili va o‘zbek dramaturgiyasiga ta’siri kabi masalalar tadqiq qilingan. Badiiy tarjima va adabiy aloqaning jamiyatda shakllanishi insoniyat tarixida doimo muhim omil bo‘lib kelgan. Adabiyot nafaqat estetik zavq manbai, balki ijtimoiy hayotning aks ettiruvchisi, inson ruhiyatining tafakkur va hissiyotlarini o‘rganish vositasidir. Shu nuqtai nazardan, Koreya yozuvchisi Shin Kyung Suk va O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ijodi badiiy tarjima va ijtimoiy ta’sir masalalarini tadqiq qilishda markaziy o‘rin tutadi.

Shin Kyung Suk Koreya adabiyotining yetakchi vakili sifatida inson ichki dunyosini chuqur tafakkur va introspektiv nigoh bilan tasvirlaydi. Uning hikoyalari va romanlari timsollar, metaforalar va hissiy dramatizm bilan boyitilgan bo‘lib, zamonaviy jamiyatdagi insoniy munosabatlarni o‘rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘tkir Hoshimovning ijodi ham milliy va madaniy kontekstda shakllangan, lekin global badiiy qoidalarga muvofiq, inson ruhiyati va ijtimoiy muhitni tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

Shin Kyung Suk 1963-yil yanvar oyida Jeollabuk-do provinsiyasining Jeongup shahrida tavallud topgan. U Seul San’at Institutining ijodiy bo‘limini tamomlagan va 1985-yilda “Chong Ang” adabiyotidan qishki ertaklar romani uchun “Newcomer Literary Award” mukofotini qo‘lga kiritgan. 1988-yilda u “Qishki ertaklar” to‘plamini nashr etib, radio eshittirish stantsiyasida musiqiy dastur kompozitsiyasi muallifi sifatida faoliyat yuritadi. Shin Kyung Sukning romani “Chuqur qayg‘u” insonlar orasidagi murakkab sevgi munosabatlarini o‘rganadi. Romandagi bosh qahramonlar – Inse, Van va Se – sevgining shodligi va qayg‘usini his qiladi, ammo ularning taqdiri bir-biriga mos kelmaydi. Yozuvchi ularning hayotini, ichki kechinmalarini, shuningdek, baxt va umidsizlik o‘rtasidagi nozik chegaralarni tasvirlaydi. Shin Kyung Sukning yana bir asari “Kimsasiz uy” zamonaviy insonning yolg‘izlik, introspektiv his-tuyg‘ulari va hayotiy

³⁰ Academy of Korean Studies. Klassik koreys she’riyati antologiyasi. Tashkent: TSUOS Press. 2013. – 312 p.; Academy of Korean Studies. Zamonaviy koreys nasri antologiyasi. Tashkent: TSUOS Press, 2014. – 324 p.

notinchliklarini yoritadi. 2008-yilda nashr etilgan “Onamni o‘z panohingda asra” romani Shin Kyong Sukning ijodiy cho‘qqisi hisoblanadi. Ushbu asar ona obrazini markaziy mavzu sifatida ko‘tarib, insoniyatning eng ulug‘vor fazilatlarini: mehr, sabr, fidoyilik va mehribonlikni ochib beradi. Romanning asosiy syujeti xotirasi sustlashgan onaning Seul poyezdi bekatida adashib qolishi bilan boshlanadi. Yozuvchi ona, uning farzandlari va oilasi orqali ijtimoiy va ma’naviy muammolarni badiiy tahlil qiladi. Shin Kyong Sukning asarlarida ijtimoiy kontekst va shaxsiy kechinmalar uyg‘unlashgan bo‘lib, u o‘quvchiga insoniy munosabatlar, sevgining ma’nosi va inson ruhining murakkabligi haqida chuqur tushuncha beradi.

1.3-jadval

Shin Kyong Sukning asarlari

№	Asar nomi (koreyscha)	Asar nomi (o‘zbekcha)	Yil
1	깊은 슬픔	“Chuqur qayg‘u”	1994
2	외판방	“Yolg‘iz xona”	1995
3	기차는 7시에 떠나네	“Poyezd soat ettida jo‘naydi”	1999
4	바이올렛	“Vayolet”	2001
5	리진	“Rijin”	2007
6	엄마를 부탁해	“Onamni o‘z panohingda asra”	2008
7	아버지에게 갓었어	“Otamning oldiga borgan edim”	2008
8	어디선가 나를 찾는 전화벨이 울리고	“Qayerdadir meni izlayotgan telefon qo‘ng‘irog‘i jiringlaydi”	2010
9	요가 다녀왔습니다	“Yogadan qaytdim”	2015
10	해남 땅끝에 가고 싶다	“Haenam erining oxiriga borishni istayman”	2022
11	작별 곁에서 (큰글자도서)	“Vidolashuv yonida (katta bosma)”	2023
12	잊을 수 없는 밥 한 그릇	“Unutib bo‘lmas bir kosa guruch”	2024
№	Mukofotlangan asarlari (koreyscha)	O‘zbekcha tarjima	Yil
1	풍금이 있던 자리	“Garmon turgan joy”	1993
2	깊은 숨을 쉴 때마다	“Har safar chuqur nafas olganimda”	1995
3	외판 방	“Yolg‘iz xona”	1996
4	그는 언제 오는가	“U qachon keladi?”	1997
5	부석사	“Buseoksa ibodatxonasi”	2001
6	성문 앞 보리수	“Qal’a darvozasi oldidagi bodhi daraxti”	2006

O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Bolalik yillari urush va qiyinchiliklar davriga to‘g‘ri kelgan. Shuning uchun u o‘qishni davom ettirish bilan birga ishlashga majbur bo‘lgan. Toshkent Davlat Universiteti

jurnalistika fakulteti sirtqi bo'limini tamomlagan. U gazetalarda ishlagan, so'ngra esa nashriyot va jurnal bosh muharriri lavozimlarida faoliyat yuritgan. O'tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik hikoya, qissa, roman va dramaturgiya sohalarida ham mashhur asarlar yaratgan. Uning "Ikki eshik orasi" romani o'z xalqining tarixiy qismati va murakkab ijtimoiy hayotini umumlashtiradi. Shu bilan birga, "Dunyoning ishlari" qissasi ona obrazini markaziy mavzu qilib, o'zbek jamiyatidagi ijtimoiy va ma'naviy muammolarni yoritadi. O'tkir Hoshimovning ijodiy xususiyati – inson ruhiyatining nozik jarayonlarini badiiy tahlil qilishda, shuningdek, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini zamonaviy kontekstda aks ettirishda namoyon bo'ladi. Hikoya va qissalaridagi psixologik tahlil, shuningdek, ona, ota va oilaning ijtimoiy ahamiyati, shaxsiy fidoyilik va mehribonlik mavzulari markaziy o'rin tutadi.

Shin Kyung Suk va O'tkir Hoshimovning ijodi badiiy tarjima va ijtimoiy ta'sirning murakkab mexanizmini ochib beradi. Shaxsiy va ijtimoiy kontekst uyg'unligi: har ikki yozuvchi o'z asarlarida inson kechinmalari va jamiyatning turli qatlamlari bilan bog'liq ijtimoiy voqealarni aks ettiradi.

Personaj psixologiyasi: Shin Kyong Sukning introspektiv yondashuvi va O'tkir Hoshimovning milliy ruhiyatga oid obrazlari o'quvchida empatiya va hissiy anglashni shakllantiradi.

Ma'naviy-estetik ta'sir: har ikkala muallifning asarlari orqali o'quvchi insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan tanishadi.

Global va milliy uyg'unlik: Shin Kyung Suk Koreya madaniyati va zamonaviy muammolarini, Hoshimov esa o'zbek milliy qadriyatlarini badiiy shaklda aks ettiradi.

Shin Kyung Suk va O'tkir Hoshimovning ijodi badiiy tarjima va ijtimoiy aloqaning asosiy omili sifatida adabiyotning jamiyat hayotiga ta'sirini namoyon qiladi. Ularning asarlari shaxsiy kechinmalarni milliy va global kontekstda uyg'unlashtirib, o'quvchiga insoniy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlarni yetkazadi. Shu jihatdan, ikki yozuvchining ijodi zamonaviy badiiy tafakkur va tarjima jarayonini chuqur tahlil qilishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shin Kyung Suk introspektiv hikoyachilikni rivojlantirsa, O'tkir Hoshimov milliy qadriyat va psixologik realizmni uyg'unlashtiradi. Shu tariqa, badiiy tarjima nafaqat madaniy ko'prik vazifasini bajaradi, balki insoniyat tarixida ijtimoiy va estetik ta'sir manbai sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Jahon adabiyotida ayol va ona obrazi insoniyat tafakkurining markaziy badiiy mavzularidan biri bo'lib, uning ijtimoiy mavqei va badiiy talqini muayyan tarixiy davr hamda milliy mentalitet bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi. Qadimiy mifologik tasavvurlardan tortib zamonaviy adabiyotgacha ayol obrazi jamiyatning axloqiy-me'yoriy qarashlari, ma'naviy qadriyatlari va estetik ideallarini mujassamlashtiruvchi timsol sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Shu ma'noda, ona obrazi ayol timsolining eng oliy va umuminsoniy ko'rinishi hisoblanadi.

O'zbek va koreys adabiyotida ona obrazi milliy qadriyatlar asosida shakllangan bo'lsa-da, mazmunan umumiy – fidoyilik, sabr-toqat, mehr, vijdon va axloqiy poklik kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

O'tkir Hoshimovning asarlari

T/r	Asar nomi	Nashr yili
1	<i>"Nurli dunyo: Saylanma." 1-jild</i>	1998
2	<i>"Umr savdosi: Saylanma." 2 jildlik</i>	1998
3	<i>"Tushda kechgan umrlar"</i>	2002
4	<i>"Ajdar"ning tadbiri</i>	2012
5	<i>"Sevgi qissalari"</i>	2013
6	<i>"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"</i>	2015
7	<i>"Dunyoning ishlari"</i>	2015
8	<i>"Ikki eshik orasi"</i>	2016
9	<i>"Nur borki, soya bor"</i>	2017
10	<i>"Shaharlik kuyov (5–9-sinf)"</i>	2017
11	<i>"Dunyoning ishlari"</i>	2018
12	<i>"Ikki eshik orasi"</i>	2018
13	<i>"Nur borki, soya bor"</i>	2018
14	<i>"Qalbingga quloq sol. Bahor qaytmaydi. Shamol esaveradi"</i>	2018
15	<i>"Turmushning to'rt tirgagi"</i>	2018
16	<i>"Urushning so'nggi qurboni"</i>	2018
17	<i>"O'zbeklar"</i>	2018
18	<i>"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"</i>	2019
19	<i>"Dunyoning ishlari"</i>	2019
20	<i>"Ikki eshik orasi"</i>	2019
21	<i>"Tushda kechgan umrlar"</i>	2019
22	<i>"Ikki karra ikki – besh"</i>	2020
23	<i>"Bahor qaytmaydi"</i>	2020
24	<i>"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"</i>	2021

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi hamda Shin Kyong Sukning "Onamni o'z panohingda asra" romani ushbu umumiylikni turli badiiy shakl va kompozitsion usullar orqali yoritgan muhim asarlardandir. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" memuar-qissa bo'lib, kichik-kichik novellalar orqali ona siymosi markaziy timsol darajasiga ko'tariladi. Asarda ona obrazi kundalik turmush manzaralari, mayda detallar va oddiy hayotiy holatlar orqali ochiladi. Adib ushbu asarida onani ideallashtirmaydi, balki realistik tasvir asosida uning ma'naviy buyukligini namoyon etadi. Ona o'z farzandlari, qo'ni-qo'shni va muhtojlarga nisbatan beg'araz mehr ko'rsatadi, xayr-ehsonni oshkora emas, ichki axloqiy ehtiyoj sifatida amalga oshiradi. Asardagi ona obrazi rostgo'ylik, vijdon va halollik tamoyillarining tirik ifodasidir.

Shin Kyong Sukning "Onamni o'z panohingda asra" romanida esa ona obrazi g'oyib bo'lish motivi orqali ochiladi. Asarda ona bevosita harakat qiluvchi qahramon sifatida emas, balki farzandlar va yaqinlar xotirasi orqali qayta tiklanadi. Roman ko'p ovozli kompozitsiyaga ega bo'lib, har bir qahramon nigohida ona obrazi turlicha qirralarda namoyon bo'ladi. Bu usul onaning individual shaxs emas, balki jamiyat ongida shakllangan "umumiy ona" timsoliga aylanishiga xizmat qiladi. Har ikki asarda ona o'z dardini yashiruvchi, jismoniy va ruhiy og'riqlarni sukut bilan enguvchi obraz sifatida tasvirlanadi. O'tkir Hoshimov asarida ona hayotiy voqealar, tabiat manzaralari va xalqona hikmatlar orqali ochilsa, Shin

Kyung Suk romanida ona ichki sokinlik, sukut va kech anglangan muhabbat ramzi sifatida gavdalanadi. Bu farq o'zbek adabiyotiga xos xalqchilik va koreys adabiyotidagi introspektivlik bilan izohlanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki adib ona obrazini muqaddas, biroq tirik inson sifatida talqin qiladi. Ular onani faqat ideal emas, balki jamiyat tomonidan ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan fidoyi shaxs sifatida ko'rsatadi. Asarlarda ona obrazi orqali oilaviy rishtalar, farzandlik mas'uliyati va kech anglangan nadomat masalalari ilgari suriladi. Xulosa qilib aytganda, "Dunyoning ishlari" va "Onamni o'z panohingda asra" asarlaridagi ona timsoli turli milliy adabiy an'analarga mansub bo'lishiga qaramay, mazmunan umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarlar ona obrazini badiiy tadqiq etish orqali o'zbek va koreys adabiyotlari o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni ochib beradi hamda adabiyotlararo qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur bobda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi hamda Shin Kyong Sukning "Onamni o'z panohingda asra" romanida ona obrazi psixologiyasi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilindi. Har ikki asar yozuvchilarning onani yo'qotgandan keyin kechikib anglangan iztirob, nadomat va ruhiy uyg'onish holatlari asosida yaratilgani bilan mushtarakdir. Asarlarda ona timsoli nafaqat oilaviy munosabatlar doirasida, balki ijtimoiy muhit, urushdan keyingi qashshoqlik, yo'qchilik va ma'naviy sinovlar fonida ochib beriladi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona obrazi xalqona realizm asosida, oddiy hayotiy epizodlar orqali yoritiladi. Ona mehribon, ammo sodda, savdosotiqda tajribasiz, ichki iztirobini ko'pincha sukut va sabr bilan yashiruvchi ayol sifatida tasvirlanadi. Uning ruhiy kechinmalari ko'proq farzand xotiralari orqali ochiladi. "Surat", "Bozor", "Eng og'ir gunoh", "Qarz" kabi hikoyalarda ona mehrining beqiyosligi, lekin jamiyat va oiladagi ikkinchi darajali mavqei yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shin Kyung Suk romanida esa ona obrazi psixologik jihatdan yanada murakkab va ko'p qatlamli. Pak Sonyo oilada ham ota, ham ona vazifasini bajarishga majbur bo'lgan, hayotning barcha og'irliklarini zimmasiga olgan ayol sifatida tasvirlanadi. U nafaqat o'z farzandlariga, balki jamiyatdagi tashlandiq bolalarga ham ona bo'la olgan ijtimoiy mas'uliyatli shaxsdir. Roman polifonik uslubda yozilgan bo'lib, ona obrazi turli personajlar xotirasi orqali ochiladi; bu esa onaning hayot davomida qanday qilib "men"ligini yo'qotib, o'zini boshqalarga bag'ishlab yuborganini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotidagi ona obrazi ko'proq ichki yuvoshlik, taqdirga bo'ysunish va sabr orqali ifodalansa, koreys adabiyotida u faol, tashabbuskor, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustaqilroq ruhiy tip sifatida namoyon bo'ladi. Biroq har ikki obrazni birlashtiruvchi asosiy jihat – cheksiz fidoyilik, farzandlar oldidagi mas'uliyat va sukutda kechgan ruhiy fojialardir.

XULOSA

Adabiy aloqaga, eng avvalo, adabiyotimizning badiiy teranligiga faol ta'sir ko'rsatadigan, uni xalqaro miqyoslarga ko'tarish va jahon adabiyoti kontekstida o'z o'rnini egallashida muhim ahamiyat kasb etadigan, milliy g'oyalarimizni mustahkamlashga xizmat qiladigan, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy ravnaqimizning

muhim belgilarini ko'rsatib, komil shaxs yo'nalishidagi insonni tarbiyalash ishi bilan mustahkam bog'langan jarayon sifatida qarashimiz lozim.

Turkologlarning ilmiy izlanish maskani bo'lgan Shimoliy Turkiston (Xitoy hozirgi Xinjiang Uyg'ur Avtonom Respublikasi) hududidagi «Turfan Oasen»dan olib ketilgan noyob qo'lyozmalar, Samarqand Afrosiyob devoriy sur'atlaridagi koreys elchilari va Koreyaning Kyongju shahridagi So'g'diy savdogarlar haykali, Koreyada turkiylar dunyosining o'tmishini yoritishga xizmat qilishi Seul va Pusan turkiyshunoslik maktablari misolida tarixiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan kuzatish orqali ilmiy isbotlangan.

“Dunyoning ishlari” asarida esa ona buyuk bir xilqat, onalarimiz siymosi-yu butun hayot tashvishlarini boshidan o'tkazib bu haqida bir og'iz ham nolimagan, har bir nigohdan, har bir inson zoti-yu har bir hodisadan yaxshilik, mehr-muruvat izlagan qalbi daryo, fe'li keng, qalbi nozik, o'zi mehnatkash, halol, pokiza ona sifatida tasvirlanadi.

“Onamni o'z panohida asra” romanida ona ruhiy va jismonan dardini yashirib, dunyoning bor go'zalligi va ne'matlarini farzandlari uchun in'om etadigan, erta tongda shirin uyqusini buzib farzandlari uchun nonushta tayyorlaydigan, ko'z yoshlarini to'kib, issiq o'choq oldida guruchli non pishiradigan, sodda, ammo kuchli ona sifatida tasvirlanadi.

Adabiy aloqalarning taraqqiyot bosqichlarida tarjima, ta'sir, tipologik mushtaraklik (o'xshashlik) va o'zaro muloqot kabi masalalar asosiy omil ekanligi koreys va o'zbek adabiyoti namunalari misolida dalillangan;

Seul va Pusan turkologiya maktablariga oid tarixiy va ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan olib borilgan kuzatishlarga asoslanib, koreyada turkologiyaning o'rganilish darajasining pastligi va buning sabablari ilmiy nuqtai nazardan o'rganilganligi isbotlangan.

Shin Kyung Suk va O'tkir Hoshimovning asarlari badiiy tarjima va ijodiy ta'sirning amaliy mexanizmini namoyish etadi. Ular asarlarida shaxsiy kechinmalarni milliy va global kontekst bilan uyg'unlashtirib, o'quvchiga insoniy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlarni yetkazadi. Shu jihatdan, ularning ijodi zamonaviy badiiy tafakkur va tarjima jarayonini chuqur tahlil qilishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Shin Kyung Suk introspektiv hikoyachilikni rivojlantirsa, O'tkir Hoshimov milliy qadriyat va psixologik realizmni uyg'unlashtiradi. Ona obrazining badiiy talqini va psixologik tafsili ikki xalq adabiyotidagi madaniy va estetik yaqinlikni ochib beradi. Shu tariqa, badiiy tarjima va ijodiy ta'sir Koreys–O'zbek adabiy aloqasining asosiy omili sifatida adabiyotning jamiyat hayotiga ta'sirini mustahkamlaydi.

Shin Kyung Sukning “Onamni panohingda asra” va O'tkir Hoshimovning “Dunyo ishlari” badiiy asarlari kesimida koreys-o'zbek adabiy aloqalarining yangi bosqichi taglama tarjimlar asosida isbotlangan;

Shin Kyung Sukning “Onamni panohingda asra” asaridagi she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonlarning o'ziga xos qiyinchiliklari va badiiy mahoratining lingvistik-poetik tahlili o'tkazildi va tarjimaning muqobil variantlari taklif etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

КАДИРОВ ТИМУР РАХМАТИЛЛОЕВИЧ

**ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ
ЛИТЕРАТУРНЫХ СВЯЗЕЙ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ**

10.00.06 - Сравнительное литературоведение и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

В условиях ускорения процессов глобализации и межкультурной интеграции на мировом уровне литературно-культурные связи между различными народами выходят на качественно новый этап. Данный процесс способствует взаимообогащению национальных литератур, расширению масштабов художественного перевода, а также укреплению культурного диалога между народами. Вместе с тем особую актуальность приобретают вопросы максимально полного сохранения в переводе художественно-эстетической ценности произведения, авторского стиля и его национальной самобытности, адекватной передачи данных особенностей читателю, дальнейшего развития литературных связей узбекской литературы с литературами других народов, а также повышения качества переводческой практики. Необходимость совершенствования деятельности в данном направлении, дальнейшего укрепления литературных связей и повышения эффективности художественного перевода определяет актуальность и востребованность настоящего исследования.

В ведущих научно-исследовательских центрах мира проводятся широкомасштабные исследования в области художественного перевода, сравнительного литературоведения и переводоведения. В частности, одним из приоритетных направлений современного переводоведения является изучение принципов перевода художественных произведений с языка оригинала, способов сохранения национально-культурной специфики в переводе, адекватной передачи лингвокультурологических единиц, а также закономерностей развития литературных связей между народами. В рамках проводимых научных исследований особое внимание уделяется вопросам разработки переводческих стратегий, передачи семантических и прагматических особенностей художественного текста средствами другого языка, а также выявления принципов формирования и развития межлитературных связей. В этом отношении важным научным направлением является исследование места корейской литературы в мировом литературном процессе, особенностей ее перевода на другие языки и способов репрезентации национального колорита в переводном тексте.

В нашей стране вопросам качественного перевода образцов зарубежной литературы на узбекский язык и развитию научных основ переводческой деятельности уделяется внимание на уровне государственной политики. Как отмечается, «существует необходимость коренного повышения авторитета и статуса узбекского языка как государственного, укрепления его международного престижа, расширения его возможностей в сфере науки и культуры».³¹ В этой связи возникает необходимость научного исследования лексико-семантических, лингвостилистических, лингвокультурологических и лингвопрагматических проблем, возникающих при переводе корейских художественных произведений на узбекский язык, в частности вопросов

³¹ Мирзиёев Ш.М. «О мерах по кардинальному повышению авторитета и статуса узбекского языка как государственного»: Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850.

репрезентации национально-культурных особенностей текста оригинала в переводе. Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлениями Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года №ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», от 6 ноября 2020 года № ПП-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», от 25 января 2021 года № ПП-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития», от 19 мая 2021 года №ПП-5117 «О мерах по качественному выведению на новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», а также иными нормативно-правовыми документами, относящимися к данной сфере.³²

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий: I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Вопросы двусторонних взаимосвязей национальных литератур, перевода и литературного влияния в мировом контексте исследовались рядом зарубежных ученых. В мировом литературоведении данные вопросы сформировали самостоятельное научное направление, в рамках которого исследовались основные принципы, закономерности развития и механизмы литературного влияния. В частности, соответствующие исследования проводились Ж. Винеем, Ж. Дальберне, К.

³² Указ Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 29.10.2025); Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 30.10.2025); постановление Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 02.11.2025); постановление Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № ПП-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 02.11.2025); постановление Президента Республики Узбекистан от 25 января 2021 года № ПП-4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 02.11.2025); постановление Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по качественному выведению на новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан». LexUZ — официальный текст документа (дата обращения: 03.11.2025).

Лю, С. Чжаном, П. Крингсом, Э. Гентцлером, А. Барселоней и другими учеными.³³ В литературоведении братских народов существенное значение имеют научные труды А. С. Бабаяна, В. М. Гаджиева, М. Ш. Курманова, Л. К. Хучуа, А. И. Агаева, В. М. Кахνιαшвили и других исследователей [2]. В узбекском литературоведении различные аспекты перевода, в частности художественного перевода, широко исследованы в трудах К. Мусаева, Д. Хошимовой, А. Шариповой, Р. Шириновой, З. Тешабоевой, У. Ёлдошева, М. Холбекова и других ученых.³⁴

Однако вопросы формирования и развития корейско-узбекских литературных связей, их основные этапы и научно-теоретические основы до настоящего времени не являлись предметом отдельного целостного и системного фундаментального исследования в литературоведении. В связи с этим исследование данного периода сравнительного литературоведения в контексте новых научных подходов и концепций, а также выявление ведущих особенностей корейско-узбекских литературных связей приобретают особую научную значимость и становятся одной из ключевых задач современного литературоведческого³⁵ исследования. Именно данным научным принципом руководствовались при определении цели и задач диссертационного исследования.

Большинство рассмотренных выше научных исследований посвящено проблемам художественного перевода. В диссертационном исследовании Хусниддина Исламова на тему «Изучение сатирической литературы Узбекистана и Кореи (на материале произведений Шин Кён Сук и Уткира Хошимова)», выполненном в Корее³⁶, выявлены лексические, семантические, синтаксико-стилистические, прагматические и лингвокультурологические особенности перевода изобразительно-выразительных средств. Кроме того, в исследовании использованы научные труды известных

³³ Вине Ж. П., Дальберне Ж. *Сопоставительная стилистика французского и английского языков: методология перевода*. Амстердам: John Benjamins, 1995. – 358 с.; Liu K. *Corpus-assisted translation teaching: Challenges and issues*. Singapore: Springer, 2020. – 162 p.; Zhang X. *Corpus-based studies of explicitation*. In: *The Routledge Handbook of Corpus Translation Studies*. London: Routledge, 2024. – P. 254–268; Krings H. P. *Was in den Köpfen von Übersetzern vorgeht*. Tübingen: Narr, 1986. – 393 p.; Gentzler E. *Contemporary Translation Theories*. London: Routledge, 1993. – 224 p.; Barcelona A. *Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective*. Berlin: Mouton de Gruyter, 2000. – P. 295–320.

³⁴ Бабаян В. Н. *Текст и дискурс*. Ярославль: ЯГПУ им. К. Д. Ушинского, 2002. – 160 с.; Гаджиев В. М. *Теория и практика перевода*. Баку: Элм, 2004. – 240 с.; Курманов М. Ш. *Основы переводоведения*. Алматы: Қазақ университеті, 2010. – 256 с.; Хучуа Л. К. *Лингвистические основы перевода*. Тбилиси: Издательство Тбилисского университета, 2005. – 210 с.; Агаев А. И. *Проблемы перевода и межкультурной коммуникации*. Баку: Азербайджанский государственный педагогический университет, 2015. – 180 с.; Кахνιαшвили В. М. *Теория перевода (англо-грузинский аспект)*. Тбилиси: Мецниереба, 2007. – 220 с.

